

UDK: 796.012

BO'LAJAK SPORT MURABBIYLARIDA PEDAGOGIK INTUITSIYANI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONLARI

Axmedov Jaloliddin Oribovich

*Andijon davlat universiteti Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrası
dotsenti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik intuitsiyaning mohiyati, uning murabbiy faoliyatidagi ahamiyati va uni takomillashtirishning asosiy jarayonlari atroflicha yoritiladi. Pedagogik intuitsiyaning rivojlantirish uchun nazariy bilimlar, amaliy tajriba, refleksiv tahlil va o'z-o'zini rivojlantirishning ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik intuisiya, pedagogik mahorat, kasbiy rivojlanish, refleksiv tahlil, o'qituvchining kompetentligi, didaktika, psixologiya, innovatsion pedagogika.

ПРОЦЕССЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ИНТУИЦИИ У БУДУЩИХ СПОРТИВНЫХ ТРЕНЕРОВ

Аннотация. В статье подробно описаны сущность педагогической интуиции, её значение в деятельности учителя и основные процессы её совершенствования. Подчёркивается важность теоретических знаний, практического опыта, рефлексивного анализа и саморазвития для развития педагогической интуиции.

Ключевые слова: Педагогическая интуиция, педагогическое мастерство, профессиональное развитие, рефлексивный анализ, компетентность учителя, дидактика, психология, инновационная педагогика.

PROCESSES OF IMPROVING PEDAGOGICAL INTUITION IN FUTURE SPORTS COACHES

Abstract. This article describes in detail the essence of pedagogical intuition, its importance in teacher practice, and the key processes for its improvement. It emphasizes the importance of theoretical knowledge, practical experience, reflective analysis, and self-development for developing pedagogical intuition.

Keywords: Pedagogical intuition, pedagogical excellence, professional development, reflective analysis, teacher competence, didactics, psychology, innovative pedagogy.

KIRISH

Pedagogik intuitsiyaning samarali rivojlanishi bir qator o'zaro bog'liq omillar majmuasiga bog'liq. Bu omillarni chuqur tushunish intuitsiyaning takomillashtirishga qaratilgan metodikalarni ishlab chiqishda asosiy yo'nalishlarni belgilab beradi.

Tajriba va bilimning roli

Intuitsiya – bu tajriba hamda ongsiz bilimga asoslangan tezkor va samarali qaror qabul qilish qobiliyatidir. Murabbiyning faoliyati davomida to'plangan amaliy tajriba hamda turli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalari intuitiv qarorlarni shakllantirishning asosiy omillaridir. Tajribali murabbiylar intuisiyasi ko'p yillik faoliyat, sportchilar bilan o'tkazilgan vaqt va qaror qabul qilish konteksti natijasida shakllanadi. Ular miyasi muayyan vaziyatlarga tez va maqsadga muvofiq javob berish uchun "odatlashgan" neyron yo'llarni yaratadi, bu esa ongli hisob-kitoblardan voz kechib, intuitiv yechimlarga asoslanish imkonini beradi.

Bilim va ko'nikmalarni doimiy ravishda takomillashtirish, muntazam o'rganish va shaxsiy rivojlanish intuisiyani yanada takomillashtiradi. Murabbiy qanchalik boy bilimga ega bo'lsa, uning intuitiv qarorlari shunchalik asosli va aniq bo'ladi. Shu bois, intuisiyani rivojlantirishda bilim bazasining mustahkamligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Intuitsiyani takomillashtirish jarayoni – bu bilimlarni oshirish, murakkab vaziyatlarda faoliyat yuritish, refleksiya qilish va tajribalarni muntazam tahlil qilishga asoslangan kompleks jarayondir. Bu jarayonning asosiy bosqichlari quyidagicha tavsiflanadi:

Bilim bazasini kengaytirish va mustahkamlash.

Intuisiya ko'pincha ongsiz jarayon sifatida namoyon bo'lsa-da, uning asosida katta hajmdagi bilish va tajriba ma'lumotlari turibdi. Shu bois, murabbiy yoki mutaxassisning bilim darajasini oshirish, nazariy va amaliy bilimlarni birgalikda mustahkamlash intuitiv qarorlarni aniq va ishonchli qiladi. Ilmiy adabiyotlar o'rganish, seminar va treninglarda faol ishtirok etish bu jarayonga hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ma'lumotlarga ko'ra, intuitsiya asosan murabbiyning boy bilim bazasi va uzoq yillik tajribasiga tayanadi. Masalan, Gigerena va Hersxaymerning tadqiqotida, sport murabbiylarining ko'p yillik tajribasi ularning qarorlarini ongsiz ravishda tez va aniq qabul qilish qobiliyatini oshiradi, bu esa intuisiyaning asosi hisoblanadi. Shuningdek, Dekker va Koldun ham murabbiylarning murakkab vaziyatlardagi qarorlari ularning bilim bazasi va tajribasiga bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar.

Murakkab va noaniq vaziyatlarda faoliyat yuritish va intuitiv qaror qabul qilish

Murakkab va o'zgaruvchan sharoitlarda tezkor va aniq qarorlar qabul qilish – murabbiylik va boshqa professional faoliyatlarda muhim ko'nikmadir. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu ko'nikma asosan ko'p yillik amaliy tajriba hamda miyadagi neyron yo'llarining adaptatsiyasi natijasida shakllanadi.

Klein va uning hamkasblari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida murakkab va noaniq vaziyatlarda intuitiv qaror qabul qilish jarayoni modeli orqali batafsil o'rganilgan. Ushbu modelga ko'ra, tajribali mutaxassislar – sport murabbiylari, harbiy rahbarlar va tezkor qarorlar talab qilinadigan boshqa soha vakillari – tezda mavjud variantlarni baholab, ongsiz ravishda eng maqbul qarorni qabul qila olishadi. Model shuningdek, bu jarayonning murakkab sharoitlarda tez va samarali ishlashi uchun neyron tarmoqlarining "odatlashuvi" zarurligini ta'kidlaydi.

Beilock va Carrning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, ko'p marta takrorlangan amaliyot va murakkab sharoitlarda faoliyat yuritish miyadagi neyropastiklikni rag'batlantirib, intuitiv qaror qabul qilish jarayonini mustahkamlaydi. Bu esa murabbiylarga va boshqa mutaxassislarga stressli vaziyatlarda ham samarali ishlash imkonini beradi. Shuningdek, Sutton o'z ishida murabbiylarning murakkab va tez o'zgaradigan vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonida intuitsiyaning rolini tahlil qilib, intuitsiyaning yuqori darajada rivojlanishi ko'p yillik amaliyot va real vaziyatlarga doimiy duch kelish natijasida yuzaga kelishini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, murabbiylar va mutaxassislarning murakkab sharoitlarda samarali intuitsiyasi ularning amaliy tajribasi va miyadagi neyron yo'llarining moslashuvi natijasidir.

Refleksiya va faol tahlil

Tajribani muntazam tahlil qilish va o'ziga xos refleksiya qilish – ya'ni o'z harakatlari va qarorlarini chuqur o'rganish, ularning natijalarini baholash jarayoni –intuitsiyaning rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu usul shaxsga o'z xatolarini va muvaffaqiyatlarini anglab yetishga yordam beradi, kelgusi faoliyat uchun yondashuvlarni takomillashtirish imkonini yaratadi. Zamonaviy ta'lim va murabbiylik sohasidagi tadqiqotlar refleksiyani shaxsning o'z amaliyoti, qarorlari va

harakatlarini tizimli ravishda tahlil qilish jarayoni sifatida ta'riflaydi. Bu jarayon murabbiylarning professional malakasini oshirish va intuitsiyasini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xorijlik olimlardan J.A Moon o'zining "Refleksiya va bandlik" nomli ilmiy manbasida refleksiyani shaxsning o'z tajribasidan ma'noli xulosalar chiqarish va kelajakdagi faoliyat uchun strategiyalar ishlab chiqish jarayoni sifatida ko'radi. Ushbu jarayon murabbiylarga o'z ish faoliyatidagi yutuq va xatolarni aniqlashga yordam beradi.

B.Larrivee murabbiylarning professional o'sishida refleksiyaning ahamiyatini ta'kidlab, uni o'rganish va o'zini rivojlantirish uchun muhim vosita deb hisoblaydi. Refleksiya murabbiylarga o'z kuchli va zaif tomonlarini anglash imkonini beradi.

M.Eraut esa refleksiyaning intuitsiyani rivojlantirishdagi rolini o'rganib, doimiy va tizimli tahlil natijasida murabbiylarning ongsiz ravishda qabul qiladigan qarorlari yanada aniq va asoslangan bo'lishini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, refleksiya murabbiylik amaliyotida faqat o'tgan tajribalarni tahlil qilish emas, balki doimiy o'rganish va professional rivojlanish jarayoni sifatida qaraladi.

Muloqot va tajriba almashish

Mutaxassislar orasidagi muntazam muloqot, tajriba almashish ham intuisiyani yaxshilash uchun muhimdir. Bu jarayonda turli vaziyatlar bo'yicha fikrlar, yechimlar muhokama qilinadi, yangi g'oyalar va yondashuvlar paydo bo'ladi, bu esa intuitiv qarashlar doirasini kengaytiradi. Ilmiy manbalarda ko'pincha mutaxassislar o'rtasidagi muloqot va tajriba almashish intuisiyani rivojlantirishda muhim omil sifatida ta'kidlanadi. Masalan, sport murabbiylari o'rtasida tashkil etilgan seminarlar va master-klasslar natijasida yangi bilimlar paydo bo'lib, ularning intuitiv qarashlari kengayadi.

Cox va Collinsning tadqiqotiga ko'ra, mutaxassislar o'rtasidagi muntazam muloqot, seminarlar va master-klasslar yangi bilimlarni olishga va intuisiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, sport murabbiylari uchun juda muhimdir, chunki ular turli vaziyatlarda tez va aniq qaror qabul qilishga majbur bo'ladilar.

Ushbu olimlarning fikrlari o'rinli, ularning g'oyalari mutaxassislarining doimiy o'zaro ta'siri kollektiv bilim va tajribaning sinergiyasini yaratadi, bu esa har bir shaxsning intuitsiyasini rivojlantirish uchun qulay muhitni ta'minlaydi. Haqiqatan ham, mutaxassislar o'rtasidagi muntazam muloqot, seminarlar va master-klasslar yangi bilimlarni olish va intuitsiyani rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat sport murabbiylari, balki pedagoglar, shifokorlar, injenerlar kabi doimiy ravishda tezkor va aniq qarorlar qabul qilishi shart bo'lgan boshqa soha vakillari uchun ham dolzarbdir. Bunga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, yashirin bilimlarni oshkor qilish, turli yondashuvlarni o'rganish, refleksiya va o'z-o'zini baholash, ishonchni mustahkamlash, yangiliklarni integratsiya qilish bu kabi o'zaro hamkorlik va tajriba almashish jarayonlari intuitsiyani quyidagi yo'llar bilan kuchaytiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, pedagogik intuitsiya zamonaviy murabbiyning eng muhim kasbiy fazilatlaridan biridir. U faqatgina tug'ma qobiliyat bo'lmay, balki muntazam mehnat, chuqur bilimlar, boy tajriba va doimiy o'z-o'zini takomillashtirish natijasida rivojlanadigan murakkab jarayondir. Pedagogik intuitsiyani rivojlantirish murabbiyga samaraliroq ishlashga, sportchilar bilan chuqurroq aloqa o'rnatishga va ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va mazmunli qilishga yordam beradi. Har bir pedagogning bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlari ta'lim sifatini oshirishda va yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dekker R., Koldunov M. Expert decision-making in coaching: A review and future directions. *Journal of Sports Sciences*. – 2015 33(12), 1286-1294
2. Klein G., Moon B., Hoffman R.R. Making Sense of Sensemaking 2: A Macro-cognitive Model. CRC Press. –2017
3. Beilock S. L., Carr T. H. When high-powered people fail: Working memory and "choking under pressure" in math. *Psychological Science*, – 2005,16(2). – P.101-105.
4. Sutton, R. S. Intuition in Decision Making: The Role of Experience and Neural Adaptation. *Journal of Applied Cognitive Psychology*. – 2020, 34(7), –P.1461-1472.
5. Moon J. A. Reflection and Employability. Routledge. – 20013
6. Larrivee .B. Development of a tool to assess teachers' level of reflective practice. *Reflective Practice*. – 2008,9(3), – P.341-360.